

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI**

AXMADALIYEV LOCHINBEK MAXAMADYUSUF O‘G‘LI

**“TAZKIRAI QAYYUMIY”DAGI QO‘QON SHOIRLARI
ASARLARINING MATNIY-QIYOSIY TADQIQI**

10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
ILMIY DARAJASINI OLISH UCHUN YOZILGAN**

DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences

Axmadaliyev Lochinbek Maxamadyusuf o‘g‘li

“Tazkirai Qayyumi”dagi Qo‘qon shoirlari asarlarining matniy-qiyosiy tadqiqi

Ахмадалиев Лочинбек Махамадюсуф ўғли

Текстологическое и сравнительное исследование творчества поэтов Коканда в “Тазкирай Кайюми”

Axmadaliyev Lochinbek Maxamadyusuf o‘g‘li

A textual and comparative study of the works of Kokand poets in “Tazkirai Qayyumi”

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI**

AXMADALIYEV LOCHINBEK MAXAMADYUSUF O‘G‘LI

**“TAZKIRAI QAYYUMIY”DAGI QO‘QON SHOIRLARI
ASARLARINING MATNIY-QIYOSIY TADQIQI**

10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
ILMIY DARAJASINI OLISH UCHUN YOZILGAN**

DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2022.2.PhD/Fil2684 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) hamda “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Jo‘raboyev Otabek Rustambek o‘g‘li**
filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy
xodim

Rasmiy opponentlar: **Zohidov Rashidjon Fozilovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Hasanov Nodirxon Dadaxonovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.fil.19.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil “___”-_____ soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (<http://www.tsuull.uz>).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; (<http://www.tsuull.uz>).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ da tarqatildi.
(2024-yil _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

H.A.Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor.

Q.U.Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
filol.f.d., professor.

Sh.S.Sirojiddinov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filol.f.d., akademik.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Adabiyotshunoslikda uzoq davrlardan buyon adabiy manbalarni sohaga oid turli aspektlar orqali o'rganilmoqda hamda mazkur ma'naviy xazinalar butun insoniyat tamaddunining boy merosi ekanligi tobora o'z isbotini topmoqda. Kishilik jamiyatining qaror topishidan to hozirga qadar yaratilgan turli ko'rinisdagi moddiy va yozma manbalarni ilmiy tadqiq etish va buning natijasida ulardagi mavjud eng muhim hamda zaruriy ma'lumotlarni kelajak avlodga yetkazib berish xususida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirimoqda. Ushbu ilmiy izlanishlar natijasi sabab har bir millat va elatning ma'naviyati, tili, madaniyati, diniy-e'tiqodiy qarashlari, mentaliteti boyib bormoqda. Mazkur jarayon bilan parallel ravishda adabiy manbashunoslik, bibliografiya, arxivshunoslik va matnshunoslik kabi sohalar rivojining umumfanlar kesimidagi ulushi tobora o'sib borishi orqali kitoba, qo'lyozma, toshbosma, bosma manbalarni yig'ish, ilmiy tavsiflash, ilmiy-tanqidiy o'rganish, matniy-qiyosiy tadqiq etish, nazariy asoslarini tahlil qilish soha mutaxassisleri tomonidan qo'llanilayotgan tadqiq usullari hamda ilmiy tekshirishlarida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik sohasida shoir va yozuvchilar adabiy merosi hamda olimlar ilmiy merosini jamlash, ilmiy tavsif qilish, muallif o'z asarini yozishlik fikri shakllanib, material yig'ishni boshlaganidan to hozirga qadar ushbu manba ustida amalga oshirilgan tadqiqotlar, yondashuvlardan iborat matn tahririni tizimlashtirish hamda tasniflash asosida o'rganish, insoniyat adabiy-estetik qarashlari taraqqiyotiga xizmat qila oladigan yutuqlari, foydali tomonlarini olib chiqish hamda keng jamoatchilikka yoyish bo'yicha amaliy ishlar muntazam davom ettirilmoqda. Mazkur ishlarning dolzarbligi bir qancha omillarda ko'rinadi. Masalan, ilm-fan o'chog'i sanalgan qadimiy Sharq xalqlari va elatlaridan meros bo'lib qolgan qadimiy manbalarni o'rganish ularning jahon sivilizatsiyaning shakllanishi hamda rivojlanishida tutgan o'rni bilan belgilanadi. Sharq mutafakkirlari, olim, yozuvchi va shoirlari tomonidan bitilgan qo'lyozmalarni atroflicha o'rganish xususidagi ilmiy izlanishlarni soha mutaxassisleri tomonidan davomli qo'lga kiritilayotgan yutuqlar asosida izchil davom ettirish hamda muttasil rivojlantirish zaruriyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda ham matnshunoslik va adabiy manbashunoslik uzoq yillik tarixga, ko'plab yutuqlarga ega soha ekanligi ma'lum. "Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak"¹. Nafaqat o'zbek, balki butun Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotida muhim o'rin tutgan Xo'qandi latif adabiy muhitida kamol topgan ijodkorlar salmoqli o'rinni egallaydi. Ularning orasida hayoti, ijodi va ilmiy merosi hanuzgacha to'liq tadqiq etilmaganlari ham uchraydi. Ijodiy laboratoriyasi, xususan, qo'lyozma va arxivlari hali-hanuz tadqiq etilmagan ijodkorlar hayoti va adabiy faoliyatini keng miqyosda o'rganish, bibliografiyasini shakllantirish, asarlarining yozilish tarixi va matn tahririni ochib berish, qo'lyozma nusxalarini yig'ish hamda qiyosiy o'rganish orqali ishonchli matnni yuzaga keltirish, ularning ahamiyatini belgilash sohaning dolzarb masalalaridan sanaladi. Bu o'rinda ushbu

¹ Mirziyoyev Sh.M. Taraqqiyot yo'limizning shiddati yanada oshaveradi. Oliy Majlisga Murojaatnoma. // Xalq so'zi. №65. –B.2.

davr adabiy muhitidan darak beruvchi tazkiralarning ahamiyati katta. Xuddi shunday tazkiralardan biri Po‘latjon domulla Qayyumiy (1885-1964)ning “Tazkirai Qayyumiy” asaridir. Tazkira 1953-1960-yillarda yozilgan bo‘lsa-da, uning tarkibiga kiritilgan materiallar muallif tomonidan butun umrlik ilmiy faoliyati davomida yig‘ilib, tahrirlab borilgan.

Tazkira, asosan, turkiy (o‘zbek) ijodkorlar haqidagi ma’lumotlar hamda ularning she’rlaridan namunalarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, mumtoz shoirlardan to tazkiranavisning zamondoshlari (XII asrdan XX asr II yarmi)gacha bag‘ishlangan. Asarda adabiyotshunoslik fani uchun yaxshi tanish bo‘lgan shoirlardan tortib, hayoti va adabiy merosi haligacha o‘rganilmagan, biroq yuksak saviyali, o‘tkir did va nuktasanj qalam ahllarigacha uchratish mumkin.

“Tazkirai Qayyumiy” qo‘lyozmasining to‘liq ilmiy tavsifini shakllantirish, asarning manbashunoslik tadqiqini amalga oshirish, matniy o‘ziga xosligini aniqlash, tazkira qo‘lyozmasi va nashrini qiyosiy o‘rganish asosida qo‘lga kiritilgan ilmiy yangiliklar bilan to‘ldirilgan asarning nashrini amalga oshirish, undan o‘rin olgan qo‘qonlik shoirlar she’rlarining devonlaridagi variantlari bilan muqoyasalash orqali o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rsatib berish, asarning adabiy, tarixiy manba sifatidagi ahamiyati va qiymatini aniqlash, Po‘latjon Qayyumiy ilmiy faoliyatini tasniflash asosida izchil va muntazam o‘rganish singari masalalar ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ko‘rsatib beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ–2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ–2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 24-maydagi PQ–2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 6-noyabrdagi 891-son “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-apreldagi PQ–4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qila oladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirga qadar matnshunoslik va adabiy manbashunoslikning nazariy masalalari, xususan, Qo‘qon xonligida yuzaga kelgan adabiy muhitiga oid salmoqli ishlar olib borilgan. Jumladan, Y.Ekman, K.Eraslan, A.To‘g‘on, A.Samaylovich, Y.Bertels, S.Ayniy; M.Solihov, A.Qayumov,

A.Abdugʻafurov, M.Qodirova, A.Madaminov, R.Tojiboyev, A.Turdialiyev, E.Ibrohimova, Sh.Sirojiddinov, N.Jabborov, R.Zohidov, O.Joʻrabojev, Z.Qobilova, A.Erkinov, S.Rafiddinov, N.Hasanov, Q.Pardayev, D.Abdullayeva, A.Dehqonov, D.Zohidova, N.Muhiddinova² singari adabiyotshunoslar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlari buning isbotidir.

XIX asr boshqa sohalarda boʻlgani kabi adabiyotshunoslikda ham muhim ilmiy tadqiqot va yoʻnalishlar uchun yoʻl ochilish asri boʻldi. Jumladan, asr oxirlariga kelib Amiriy boshchiligidagi adabiy muhit borasida baʼzi ilmiy-nazariy kuzatuvlar ilk bora rus adabiyotshunosligida amalga oshirila boshlandi. Davr adabiyotini tom maʼnoda oʻrganish boʻyicha dastlabki harakatlar XX asr oʻrtalariga toʻgʻri keldi. Chunonchi, Poʻlatjon Qayyumiy bu borada bir necha muhim ishlarni amalga oshirdi (2-faslda batafsil toʻxtalinadi). A.Qayumov 1960-yilda birinchi bor mazkur adabiy muhitga nisbatan “Qoʻqon adabiy muhiti” atamasini amaliyotda qoʻlladi.

T.Jalolov, V.Zohidov, B.Valixoʻjayev, E.Shodiyev, A.Xalilbekov, M.Hamidova, X.Ipekten³ kabi olimlar tomonidan tuzilgan darslik, ilmiy monografiya va risolalarda ham mavzuga oid qarashlarni uchratishimiz mumkin. Qoʻqon adabiy

² Eckmann J. Harezmi, kipcak ve cagatay turkcesi uzerine arastirmalar. –Ankara, 1996. –S.232.; Eraslan K. Azim hâceʼnin hikmetleri. –Istanbul: Türk dili ve edebiyatı dergisi, 1971. –S.193-230.; A.Zeki Velidi Togan. Bugunku Turk tili: Turkistan ve yakın tarihi. –Istanbul, 1981. –501 s.; Самойлович А.Н. Собрание 30 Царских поэтов сопутствующих Ферузу Хива. //ЗВОРАО.-СПБ.,Т.19(1909).вып.4. –С.0198-0209; Бертельс Э.Е. Избранные труды. Навои и Джами. –Москва,1965.; Садриддин Айний. Намунаи адабиёти тожик. –Москва, 1926. –С.195–197.; Миён Бузрук. Ўрта Осиё ва ўзбек адабиёти тарихига умумий қараш.–Тошкент: Ўздавнашр, 1930. –Б.74-86.; Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси (XV-XIX асрлар). –Тошкент, 1945. –Б.179-190.; Қаюмов А. Қўқон адабий мухити (XVIII-XIX асрлар). –Тошкент: Фан, 1961. –360 б.; Абдуғафуров А. Зокиржон Фурқат. –Тошкент: Фан, 1977. –154 б.; Қодирова М. XIX аср ўзбек адабиётида инсон ва халқ тақдири (Ўзбек шоирлари мисолида). Филол.фан. д-ри...дисс. –Тошкент, 1975. –307 б.; Мадаминов А. Узлат ва унинг лирик мероси. Филол.фан. номз...дисс. –Тошкент, 1971. –163 б.; Тожибоев Р. Маърифатга бахшида умр. // Қўқон садоси. 2006. №8. –Б.2.; Turdialiyev A. Yanglish tasavvur (Muhyi taxallusining yozilishi haqida). // Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati. –Toshkent, 2013. №46. –B.26-32.; Иброҳимова Э. Увайсий ҳаёти ва ижоди: Филол.фан. номз... дисс. –Тошкент, 1966. –123 б.; Сирождидинов Ш. Хилватий меросига этиқод самараси. // Имом ал-Бухорий сабоқлари. –Тошкент, 2002. №2. –Б.142-144.; Shu muallif. Oʻzbek matnshunosligi shakllanishining tarixiy ildizlari. // Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning dolzarb muammolari. –Toshkent: TUBO NASHR, 2022. –B.4-9.; Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол.фан. д-ри...дисс. –Тошкент, 2004. –280 б.; Зоҳидов Р. “Сабот ул-оҷизин” асарининг манбалари, шарҳлари ва илмий-танқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари. Филол.фан.д-ри ...дисс. автореф. –Тошкент, 2018. –75 б.; Shu muallif. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik asoslari. –Toshkent: Yashil yarroq nashr-matbaa uyi, 2023. –224 б.; Жўрабоев О. Ҳазиний Хўқандий ҳаёти ва ижодий мероси. Филол. фан. номз...дисс. –Тошкент, 2003. –156 б.; Qobilova Z. Badii ijodda taʼsir va izdoshlik masalalari (Amiriy sheʼriyatı misolida). Filol.fan. d-ri...diss. –Fargʻona, 2020. –260 б.; Erkinov A. “Majmuayı shoiron” tazkiramı yoki bayoz? // Adabiy meros. 2022. №1. –B.50-65.; Рафиддинов С. Азимхожа эшон. –Тошкент: Ўзбекистон, 1993. –88 б.; Hasanov N. Çağatay şairi Azim hacc ve hikmetleri. // Türk dünyası araştırmaları. 2011. –S.137-143.; Шу муаллиф. Яссавийликка доир манбалар ва “Девони Ҳикмат”. –Тошкент: Akademi nashr, 2012. –304 б.; Shu muallif. Ferganali mutasavvif şair Ziyaüddin Hazini Töre Hokandi hakkında. // Buharaʼdan Konyaʼya irfan mirasi ve XIII. YÜ. medeniyet merkezi Konya. –Konya: Aralık, 2018. –S.213-223.; Shu muallif. Qoʻqonda saqlanayotgan “Devoni hikmat”ning ayrim nusxalari haqida. // Qoʻqon adabiy muhiti va Uchinchi Renessans. –Qoʻqon: Fargʻona, 2022. –B.453-459. Пардаев Қ. Муқимий шеърятининг матн тарихи, тахрири ва талқини. Филол.фан. д-ри...дисс. – Тошкент, 2020. –310 б.; Абдуллаева Д. Усмонхўжа Зорий ҳаёти ва ижоди. Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2003. –24 б.; Деҳқонов А. Муҳаййирнинг ҳаёти ва ижоди. Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2007. –25 б.; Зоҳидова Д. Ғарбий ва унинг девони. Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. –Тошкент, 2006. –23 б.; Муҳиддинова Н. Мирҳасан Садоийнинг адабий мероси. –Тошкент: Mumtoz soʻz, 2015. –143 б.

³ Жалолов Т. Ўзбек шоирлари. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1959. –168 б.; Зоҳидов В. Ўзбек адабиёти тарихидан. –Тошкент: Ўзадабийнашр, 1961. –266 б.; Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. –Тошкент, Фан, 1974. –159 б.; Шодиев Э. Фазлий Намангоний ва Хўжанд шоирлари. –Хўжанд: Хўжанд давлат университети, 1993. –72 б.; Халилбеков А. Наманган адабий гулшани. –Наманган: Наманган, 2007. –467 б.; Ipektein H. Şair tezkireleri. –Ankara: Araştırma ve İncelme Dizisi, 2002. –372 s.

muhitiga oid tazkira va antologiyalar O.Jo‘raboyev maqolalarida⁴ ilmiy-nazariy jihatdan tavsif etilgan. S.Samandarova, M.Qodirova, M.Shoniyofov, T.Toshboltayeva⁵ kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlar ushbu muhitning tazkirada aks etishi va uning qo‘lyozmalari xususida qimmatli manbalardir. O.Jo‘raboyev tomonidan Said Muhammad Alixon devonining ilk bor nashr etilishi soha bo‘yicha amalga oshirilgan eng so‘nggi amaliy ish bo‘ldi⁶.

Yuqoridagilar singari amalga oshirilishi lozim bo‘lgan, o‘z tadqiqotini kutayotgan ishlar kam emas. Adabiyotshunoslik sohalari, xususan, mumtoz adabiyot masalalari yechimini, eng birinchi navbatda, asar matniy tadqiqidan boshlash yaxshi samara beradi. Shu sababdan adabiyot tarixining ko‘plab davr va mavzulari qatorida mazkur muhitga oid tadqiqotlar bugungi kunda ham davom etmoqda. Qo‘qonlik ijodkorlarning “Devon” va she‘riy to‘plamlari tadqiqini boshlash uchun, eng avvalo, ularning dastxat va kotiblar ko‘chirgan nusxalarini tanqidiy o‘rganish, yig‘ma jildini tuzish, tabdil qilish, akademik nashrini amalga oshirish singari zaruriy vazifalar mavjud.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi yangi ekspozitsiyasi, xususan, “XVI-XIX asrlar o‘zbek adabiyoti” va “XX asr o‘zbek adabiyoti” ekspozitsion-tematik rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. “Tazkirai Qayyumiy” qo‘lyozmasi manbashunoslik tadqiqini amalga oshirish, qo‘lyozma va joriy nashr variantlarini matniy-qiyosiy aspektda o‘rganish, olim biografiyasi va asarlarini birlamchi manbalar asosida tiklash hamda olimning ilmiy-estetik tafakkurini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Po‘latjon Qayyumiy hayoti va faoliyatiga oid manbalarni to‘plash va ular asosida olimning ilmiy tarjimaiy holini tiklash, olim faoliyatiga oid yangi ma‘lumotlarni ilmiy muomalaga olib kirish;

olim ilmiy merosi umumiy ko‘lamini aniqlash va mavzu jihatidan guruhlash hamda mavzuga doir manbalarini ilmiy tasnif etish;

olim asarlarining asliyat va nashr variantlari matniy-qiyosiy tadqiqini amalga oshirish va “Tazkirai Qayyumiy”ning qayta tabdili asosida yangi nashr nusxasini tayyorlash;

olim tomonidan qo‘lga kiritilgan Qo‘qon adabiy muhitiga doir qo‘lyozma manbalarning ilmiy ahamiyatini ochib berish hamda ularni shoirlar devonlari joriy nashrlari bilan o‘zaro tahlilini amalga oshirish.

⁴ Жўрабоев О. Кўкон адабий мухитида девончилик анъанаси ва девонлар таснифи. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008. №4. –Б.8-17; Шу муаллиф. Мирзо Сиддиқ Фано ва унинг адабий мероси. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2011. №2. –Б.117-125; Шу муаллиф. Навоий даври девончилиги ва Кўкон адабий мухити. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2015. №1. –Б.27-32; Шу муаллиф. Амир Умархон ва Кўкон адабий мухити. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2019. №6. –Б.45-46.

⁵ Самандарова С. XX аср ўзбек тазкиралари. Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. –Тошкент, 1996. –26 б.; Қодирова М. Иброҳим Даврон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. –87 б.; Шониёзов М. Мажмуаи шоироннинг матний хусусиятлари: Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. –Тошкент, 2009. –23 б.; Тошболтаева Т. Фазлий Намангоний: “Мажмуаи шоирон”да анъанавийлик ва ўзига хослик: Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. – Фарғона, 2020. –24 б.

⁶ Саид Муҳаммад Алихон. Девон (нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи: Жўрабоев О.). –Тошкент: Tamaddun, 2024. –244 б.

Tadqiqotning obyektini “Tazkirai Qayyumiy” asarining O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan №734, “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti”ning O‘zR FA ShI Qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan №10041, “O‘zbek adabiyoti namuna daftari” (“Turkiy she‘rlar to‘plami”)ning Qo‘qon davlat muzey qo‘riqxonasi qoshidagi “Buyuk allomalar” muzeyi fondida saqlanayotgan №953 qo‘lyozmalari, Amiriy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi ijodkorlar asarlarining qo‘lyozma va nashrlari, xususan, Amiriy “Devon”ining O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi №153; Nodira “Devon”ining O‘zR FA ShI Qo‘lyozmalar fondi №4182 inventarda saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmetini Po‘latjon Qayyumiy hayoti va ilmiy faoliyati haqidagi manbalar, “Tazkirai Qayyumiy” asarining qo‘lyozma va nashr nusxalari, Qo‘qon adabiy muhiti shoirlarining devon qo‘lyozmalari va ularning matniy xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda germeneytik, qiyosiy-tipologik, biografik, tarixiy-xronologik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Tazkirai Qayyumiy” qo‘lyozmasi to‘liq ilmiy tavsifi shakllantirilib, qo‘lyozma manbashunoslik aspektida tekshirilgan hamda tazkiraning yozilish tarixi, ijodkorlar biografiyasi va ijod namunalari, she‘rlarining tazkira va devondagi variantlarida she‘riy band, misra va baytlarning matn xususiyatlari ochib berilgan;

tazkiraning qo‘lyozma va nashr nusxalari o‘zaro taqqoslanib, shoirlar soni (324 nafar emas, 328 nafar) va ularning sirasi, fiqralar raqamlanishidagi xatoliklari tuzatilgan, A.Qayumov tomonidan nashr jarayonida qo‘shib ketilgan va aksincha, tushirib qoldirilgan ma‘lumotlar, qo‘lyozmadagi tahrirtalab o‘rinlar, nashrdagi xatoliklar, qo‘lyozma va nashrdagi uslubiy (774 ta) va imloviy (2327 ta) kamchiliklar aniqlangan hamda tazkiraning yangi nashr varianti chop etish uchun tayyorlangan;

tazkiradan o‘rin olgan Qo‘qon shoirlarining she‘rlari mazkur shoirlar devonlaridagi variantlari bilan birgalida qiyosiy tekshirilib, qo‘lyozma nusxalar ko‘chirilishida kotiblar tomonidan tushirib qoldirilgan misralar, noto‘g‘ri ko‘chirilgan jumlar kabi kamchiliklar aniqlangan va tazkiraga kiritilgan she‘rlarning muallif matniga nisbatan yaqin matni tayyorlangan;

Po‘latjon Qayyumiy hayoti va ilmiy faoliyati bilan bog‘liq arxiv materiallari aniqlanib, statistikalarda xato berilgan, masalan, Po‘latjon Qayyumiyga 1942-yilda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi” unvonining berilishi hamda ushbu unvonning aynan shu yilda berilishiga uning o‘qituvchilik faoliyatiga yigirma besh yil to‘lgani sabab qilib ko‘rsatilishi, aslida ushbu unvon 1944-yilda O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganligining yigirma yilligi munosabati bilan berilgani kabi ma‘lumotlar hamda uning faoliyatiga doir sanalarning turli manba va nashrlarda turlicha kelishiga chek qo‘yilgan, noto‘g‘ri va chalkash ma‘lumotlarga oydinlik kiritilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

“Tazkirai Qayyumiy”ning O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi №734 inventar raqami ostida saqlanayotgan yagona nusxasi, qolaversa, tazkiraning yuzaga kelishida birlamchi manba vazifasini o‘tagan muallif

asarlari, xususan, Qo‘qon davlat muzeyi qo‘riqxonasi qoshidagi “Buyuk allomalar” muzeyi fondi №953 inventarda saqlanayotgan “O‘zbek adabiyoti namuna daftari” qo‘lyozmasiga to‘liq ilmiy tavsif berilgan;

tazkiraning ilmiy ahamiyati, matnii xususiyatlari, o‘ziga xosligi, o‘zbek adabiyotshunosligi va adabiyot tarixidagi ahamiyati kabi masalalar ochib berilgan;

tazkiraning qo‘lyozma va nashr nusxasi qiyosiy-tipologik aspektda o‘rganilib, qaytadan tabdil etilgan va nisbatan to‘liq varianti nashrga tayyorlangan;

tazkiradagi Qo‘qon shoirlari asarlari ushbu shoirlar devonlari qo‘lyozmalari bilan qiyosiy-tekstologik tahlil qilish natijasida she‘rlarning sahih matni yaratilgan;

Po‘latjon Qayyumiy ilmiy biografiyasi to‘liq shakllantirilgan, bahs-munozarali va noto‘liq o‘rinlar hal etilgan hamda ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi “Tazkirai Qayyumiy”ning O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi №734, qolaversa, tazkiradan joy olgan Qo‘qon adabiy muhiti shoirlari devonlari, jumladan, Amiriy “Devon”ining O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi №153; Nodira “Devon”ining O‘zR FA ShI Qo‘lyozmalar fondi №4182; Po‘latjon Qayyumiy tomonidan tuzilgan “Devoni Furqat Xo‘qandiy” (1959) to‘plamining O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi Aziz Qayumov arxivi; “Devoni Firoqiy”ning Do‘st Muhammad Firoqiyning nabirasi Baxtiyorjon Do‘stmatov shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalari matnshunoslik va adabiy manbashunoslik doirasida ishlab chiqilgan nazariy usullarni qo‘llagan holda matnii tadqiq qilingani, keltirilgan tahlil, xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yangi aniqlangan adabiy materiallarning ilk bor ilmiy tahlilga tortilishi, ularning milliy istiqloq g‘oyalari bilan bog‘liqlikda o‘rganilishi, “Tazkirai Qayyumiy”ning matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yuzasidan tadqiq etilgani soha doirasida ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, qo‘lga kiritilgan materiallardan oliy ta‘lim muassasalarida bakalavriat va magistratura bosqichlari uchun “Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik”, “Ilmiy-tanqidiy matn nazariyasi”, “O‘zbek adabiyoti tarixi” fanlari bo‘yicha o‘quv qo‘llanma, darslik, shuningdek, maxsus kurslarni o‘qitish, Qo‘qon adabiy muhiti yuzasidan seminarlar tashkil qilishda tayyor manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Tazkirai Qayyumiy”dagi Qo‘qon shoirlari asarlarining matnii-qiyosiy tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida “Tazkirai Qayyumiy” qo‘lyozmasi to‘liq ilmiy tavsifi shakllantirilgan va qo‘lyozma manbashunoslik aspektida tekshirilib, tazkiraning yozilish tarixi, ijodkorlar biografiyasi va ijod namunalari she‘rlarining tazkira va devondagi variantlarida o‘xshash va farqli jihatlari kabi matn xususiyatlariga oid ilmiy xulosalardan Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika institutida 2022-yilda bajarilgan №AL-322103020 raqamli “Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlari hayoti va ijodi bo‘yicha veb-sayt va elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika institutining 2024-yil 25-yanvardagi 93/04-son ma‘lumotnomasi). Natijada “Tazkirai Qayyumiy”dagi

qo‘qonlik shoirlar hayoti va adabiy merosidan namunalar veb-sayt va elektron platforma yaratishda xizmat qilgan.

Tazkiraning qo‘lyozma va nashrining qiyosi natijasida shoirlar soni (324 nafar emas, 328 nafar) va ularning sirasi, fiqralar raqamlanishidagi xatoliklar tuzatilgani, A.Qayumov tomonidan nashr jarayonida qo‘shib ketilgan va aksincha, tushirib qoldirilgan ma‘lumotlar, qo‘lyozmada yo‘l qo‘yilgan xatoliklar, nashrdagi xato o‘rinlar, qo‘lyozma va joriy nashrning matniy-qiyosiy o‘rganilishi natijasida aniqlangan hamda bartaraf etilgan uslubiy (774 ta) va imloviy (2327 ta) kamchiliklarga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan ПФ-201912258 raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2024-yil 14-iyundagi 04/1-1577-son ma‘lumotnomasi). Natijada Po‘latjon Qayyumiy hayoti va ilmiy faoliyatiga doir ochiq qilinmagan ma‘lumotlar, statistikalarda xato berib ketilgan hamda ilmiy jamoatchilikda olim faoliyati haqida munozarali o‘rinlarga kiritilgan ilmiy aniqliklar, tazkiradan joy olgan Qo‘qon shoirlari asarlarining tuzilgan sahif matni asosida tayyorlangan variantlari elektron platforma materiallarini boyitishga asos bo‘lgan.

Tazkiradan o‘rin olgan Qo‘qon shoirlarining she‘rlari mazkur shoirlar devonlaridagi variantlari bilan birgalikda qiyosiy tekshirilib, kamchiliklar aniqlangan va tazkiraga kiritilgan she‘rlarning muallif matniga nisbatan yaqinroq matni tayyorlangani, Po‘latjon Qayyumiy hayoti va ilmiy faoliyati bilan bog‘liq arxiv materiallari aniqlangani va statistikalarda xato berilgan ma‘lumotlar to‘g‘irlangani haqidagi materiallardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Madaniy-ma‘rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyatining “Ta‘lim va taraqqiyot”, “G‘azal bo‘stoni” dasturlarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zMTRKning 2024-yil 21-maydagi O‘z/RM–19-24-son ma‘lumotnomasi). Natijada bugungi kunda ommaviy axborot vositalari orqali “Tazkirai Qayyumiy” va undagi Qo‘qon adabiy muhiti shoirlarining targ‘ibi hamda bu orqali uning yoshlar tarbiyasidagi roli va ulug‘ ajdodlarimiz nomlarini barhayot saqlash, jamiyat, fan oldidagi asosiy vazifa ekanligi, ijodkor haqidagi ma‘lumotlarni aniq, ishonchli tarzda yetkazib berish imkoniyatini yanada oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta xalqaro, 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 6 tasi Respublika hamda 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob va xulosalardan iborat bo‘lib, 146 (foydalanilgan adabiyotlar va ilovalar bilan birgalikda 197) betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirishda tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, obyekt va predmetlari belgilangan, Respublika fan va texnologiyalari

rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Qoʻqon adabiy muhitida tazkirachilik va Poʻlatjon Qayyumiyning ilmiy merosi”** deb nomlanib, u ikki paragrafdan iborat. *“Tazkirachilik tarixi va Qoʻqon adabiy muhitida tuzilgan tazkiralar”* deb nomlangan 1.1.-paragrafda tazkirachilik genezisi va tadriji, Sharqda, xususan, Markaziy Osiyoda yaratilgan tazkiralar, jumladan Qoʻqon adabiy muhitida tazkirachilik jarayonining shakllanishi hamda ushbu muhit shoirlari haqida maʼlumot beruvchi tazkiralarning ilmiy ahamiyati kabi masalalar tadqiq etilgan.

Tazkira arabcha "ذکر" (“zikr”) soʻzidan olingan boʻlib, “eslatmoq”, “zikr etmoq”, “tilga olmoq”, “esdalik daftari” degan maʼnolarni anglatadi. Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan adabiy-tanqidiy janr. Tazkira hayotning turli-tuman sohalarini qamrab olishiga koʻra uni keng va tor maʼnoda tushunish mumkin. Keng maʼnoda tazkira tarix, tasavvuf, falsafa, sanʼatning turli sohalariga bagʻishlangan boʻlishi mumkin. Tor maʼnodagi tazkira adabiy-tanqidiy qarashlarni ifoda etuvchi, adabiyot tarixi, maʼlum davr shoirlari hayoti va ijodi haqida maʼlumot, asarlaridan namunalar keltirib tuzilgan toʻplam. Adabiyotshunoslik fani uchun, asosan, tor maʼnodagi tazkiralar ahamiyatlidir.

Ilk tazkiralar arab tilida yozilgan Muhammad ibn Sallom Jumahiy (758-846), Abu Muhammad Abdulloh ibn Muslim ibn Qutayba Dinovariy (828-889) va Abu Abbos Abdulloh ibn Muhammad ibn Muʼtazz (861-908) tabaqotlaridir. Marzuboniyning “Moʻjam ush-shuaro” tazkirasida alifbo tarzida tartib berilgan ilk tazkiradir⁷. Ilk arab tazkiralari, asosan, antologiya shaklida yozilib, sheʼriy namunalar unutilib ketmasligi nazarda tutilgan.

Bizgacha yetib kelgan, janr talablariga toʻlaqonli javob bera oladigan dastlabki tazkira Abu Mansur as-Saolibiyning (961-1038) “Yatimat ad-dahr fi mahosin sheʼr ahl ul-asr” asari boʻlib, u toʻrt qismdan iborat. Soʻnggi qism arab tilida ijod etgan 124 nafar movarounnahrlik va xurosonlik ijodkorga bagʻishlangan⁸.

Hozirga qadar saqlanib qolgan fors tilidagi eng qadimiy tazkira Nuriddin Muhammad Avfiy Buxoriyning (1171-1233) “Lubob ul-albob”⁹ asari sanalib, u XIII asrning yagona tazkirasidir hamdir. Buning birlamchi sababi moʻgʻullar bosqini natijasida madaniy hayotning izdan chiqqanligidir¹⁰. Asar uzoq asrlar davomida adabiyotshunoslar, xususan, tazkiranavislar uchun dasturulamal boʻlgan. Hatto Qoʻqon adabiy muhitida “Lubob ul-albob” maʼlum va moʻtabar bir kitob boʻlib tanilganini Fazliy va Mahzuna oʻrtasidagi mushoiradan bilib olish mumkin:

Yuz ofarin soʻzingga “Lubbi lubob” koʻrmay,

⁷ Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 1993. –Б.18-20.

⁸ Абу Мансур ас-Саолибий. Татиммат ал-Ятима (нашрга тайёрловчи: Абдуллаев И.). –Тошкент: Фан, 1990. – 203 б.; Абдуллаев И. Бухоронинг арабийнавис шоирлари. –Тошкент: Фан, 1965. –Б.43-45.; Берунийга замондош шоирлар. –Тошкент: Фан, 1975. –Б.61-62.; Мерос ва талқин. –Тошкент: Фан, 2006. –Б.87-89. Болтабоев Х. Тазкиралар зикри. –Тошкент: Mumtoz soʻz, 2015. –Б.18.

⁹ Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 1993. –Б.91.

¹⁰ Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират аш-шуаро (нашрга тайёрловчи: Аҳмедов Б.). –Тошкент: Фан, 1967. – Б.5.

*Arzi jamol etarmu oyina ob ko'rmay?*¹¹

Turkiy tilda bitilgan ilk tazkira Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”¹² (1491-1492; 1498) asari bo‘lib, tarkibiy jihatiga ko‘ra, zamonaviy tazkiralarning qatoridan joy oladi. “Majolis un-nafois” asari ko‘pgina xususiyatlari bilan XVI-XIX asrlar davomida o‘zbek, fors-tojik va ozarbayjon tillarida yozilgan tazkiralarning deyarli barchasi uchun dasturulamal vazifasini o‘tadi¹³. Jumladan, “Tazkirai Qayyumiy”ni tuzishda ham asosiy manbalardan biri bo‘lgan.

Qo‘qon adabiy muhiti haqida ma‘lumot beruvchi ilk tazkira Amir Umarxonning talabi va taklifi asosida Fazliy boshchiligidagi Mushrif, Behjat, Fikriylardan iborat ijodiy guruh tomonidan tuzilgan “Majmuai shoiron” asaridir. Tazkiraning O‘zR FA ShI №7510 inventarda saqlanayotgan qo‘lyozmasi 1821-yilda ko‘chirilgani, bizgacha yetib kelgan va ma‘lum bo‘lgan nusxalarning eng qadimiysi, qolaversa Amir Umarxon tahriridan o‘tgan bo‘lishi ehtimoli bilan qolgan nusxalarga nisbatan tayanch manba vazifasini o‘tay oladi. Bundan tashqari, O‘zR FA ShI №9139, №9914, №6745, №1153; №238, №5045, №358 nusxalari ham nisbatan to‘liq va mukammaldir. Ushbu asar “Tazkirai Qayyumiy” yaratilishi uchun birlamchi manba vazifasini o‘tagan.

Qo‘qon adabiy muhiti bo‘yicha yana bir muhim tazkira Qori Rohmatulloh Vozev Buxoriy (1817-1894)ning “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-as‘hob” asari (1871) bo‘lib, unda ushbu muhiti vakillaridan Ado, Amiriy, Akmal, Behjat, Hoziq, Xotif, Xon, Zokir, Ramziy, Zohidiy, Uzlat, Fitrat mulla Qurbon, Kasrat, Gulxaniy, Muzmar, Nola, Nusrat, Vazir kabilarni uchratishimiz mumkin. Po‘latjon Qayyumiy Ado, Kasrat, Mansur, Nozik, Zohid, Hoziq, Ramziy, Murassa‘, Qayyum, Yusuf, Xumuliyy kabi fiqralarni yaratishda undan samarali foydalangan.

Bundan tashqari, Afzal Pirmastiy (1840-1915)ning “Tazkirai Afzaliy” asari (1904) ham mavjud davr haqida ma‘lumot beruvchi eng qimmatli manbalardan biri bo‘lib, Po‘latjon Qayyumiy Shams II, Rojiy, Zarif, Yusuf kabi shoirlar fiqralarini tuzishida asosiy manbalardan biri bo‘lgan.

Shuningdek, Sadridin Ayniy (1878-1954)ning “Namunai adabiyoti tojik” (1926) asariga mazkur muhit vakillaridan Amiriy, Nodira, Ado, Akmal, Asiriy, Behjat, Hoziq, Xotif, Hijlat, Zokir, Ramziy, Rindiy, Fazliy, Qurbonjon Fitrat, Fikriy, Kasrat, Gulxaniy kabi shoirlar kiritilgan. “Tazkirai Qayyumiy”ning So‘fi Olloyor, Mashrab I, Nozik, Ado, Fayyoz fiqralarida ushbu asardan foydalanilgan.

Qo‘qon adabiy muhiti haqida aniq, izchil va tizimli ma‘lumot beruvchi so‘nggi tazkira – Po‘latjon Qayyumiyning “Tazkirai Qayyumiy”¹⁴ asari bo‘lib, o‘zigacha bo‘lgan tazkiralardagi ma‘lumotlarni yaxlitlay olgani, yakdil xulosalar, oldingi tazkiralarda nomlari zikr etilmagan, ammo adabiyotshunoslik uchun muhim ahamiyat kasb eta oluvchi ijodkorlarni keng ilmiy jamoatchilikka tuhfa eta olishi bilan ahamiyatlidir. Olimning “O‘zbek adabiyoti namuna daftari”, “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti” kabi asarlari ham ushbu mavzuda bitilgan bo‘lib, garchand ular

¹¹ Мақсуд Шайхзода. Асарлар. Олти томлик. Тўртинчи том. Ғазал мулкининг султони. –Тошкент: Ғафур Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. –Б.295-346.

¹² Алишер Навоий. Мажолис ун-наfois (ношир: Ғаниева С.). // МАТ. 13- том. –Тошкент: Фан, 1997. –518 б.

¹³ Қаюмов А. Дилкушо такрорлар ва руҳафзо ашъорлар. –Тошкент: Шарқ, 2014. –Б.222-230.

¹⁴ Po‘latjon Qayyumiy. Tazkirai Qayyumiy. Qo‘lyozma. O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi. Inv. №734. –631 s.; Пўлатжон Қайюмий. Тазкирай Қайюмий (нашрга тайёрловчи: Қаюмов А.). – Тошкент: ЎзР ФА Қўлғезмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1998. –713 б.

“Tazkirai Qayyumiy”ning yuzaga kelishida birlamchi manba vazifasini o‘tagan bo‘lsa-da, aslida ularning har biri mustaqil asardir.

1.2.-paragraf “*Po‘latjon Qayyumiy – Qo‘qon adabiy muhiti tadqiqotchisi*” deb nomlanadi. Po‘latjon Qayyumiy hayoti va butun umrlik faoliyati hamda oilasi haqida Qo‘qon davlat muzeyi qo‘riqxonasi №42 “Po‘latjon Qayyumiy arxivi” yig‘ma jildi tarkibidagi №2931/1 raqamli konvertida muallifning 1945-yil martda o‘z qo‘li bilan yozgan mufassal tarjimai holi mavjud bo‘lib, dissertatsiya ilovalar bo‘limida (II qism 1-ilovada) to‘xtalindi.

Po‘latjon Qayyumiy 1945-1955-yillarda Qo‘qon o‘lkani o‘rganish muzeyida tarix bo‘limining mudiri vazifasida faoliyat olib borgan davrlarida o‘zbek adabiyoti tarixiga oid nodir qo‘lyozmalarni to‘plash borasida samarali ishlar amalga oshirildi. Ular asosida olim 69 ta she‘rdan iborat Maxmur devoni (1950), Anbar otin she‘rlar to‘plami (1963)ni topdi, Furqat she‘rlarini yig‘ib, shoir qo‘lyozma devonini tuzdi (1959). Mazkur manbalar olinga o‘z asarlarini yozishida tayanch vazifasini o‘tadi. Shu bilan birga, G‘oziy, Musoxon, Sayqaliy, Nozik, Niyoziy, Akmal, Toib, Xijlat, Nozil, Nasriddin, Muqimiy, Zavqiy, Hamza kabi ko‘plab ijodkorlar asarlari qo‘lyozmalari to‘plandi¹⁵. Bu davrda mumtoz adabiyotimizda salmoqli o‘rin tutgan shoirlar bilan bir qatorda nomlari hali u qadar tanish bo‘lmagan ijodkorlarning devonlari hamda ular haqida ma’lumot beruvchi tazkira va bayozlar qo‘lga kiritildi. Chunonchi, Mirza Olim Mushrifni tarixchi sifatida bilgan olim uning badiiy ijod bilan ham shug‘ullanganligi to‘g‘risidagi faktlarga duch keladi hamda uning ijodidan namunalarni izlashga kirishadi. 1951-yil 4-iyunda uning devonini qo‘lga kiritishga musharraf bo‘ladi¹⁶.

Yetarlicha manbalarni to‘plagan olim 1953-1960-yillarda o‘z ilmiy merosining asosini tashkil etuvchi: “O‘zbek adabiyoti namuna daftari”, “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti”, “Tazkirai Qayyumiy”, “Tazkirat ush-shuaro” asarlarini yozdi hamda vafoti (1964-yil)ga qadar muntazam ilmiy tahrirlash ishlarini olib bordi.

“Tazkirai Qayyumiy”ning so‘nggida: *2 نجي جيلدگه بيه هم متيرياً للاريميز باردور. قيوماو . قوقان شهري .* پولا د. 04.1960.

“II jildga yana materiallarimiz bordur. Qayyumov Po‘lod. 1960/IV. Qo‘qon shahari”¹⁷, -deya muallif izohi keltirilgan. Bundan shu narsa anglashiladiki, tazkira nihoyalanmagan. Muallif uni davom ettirish maqsadida Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon, Namangan, Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda istiqomat qilayotgan shoirlarga maktub orqali murojaat qilib, ularning hayoti va adabiy faoliyati xususida ma’lumotlar yig‘ib borgan. Biroq olimning vafoti mazkur ishning yakunlanmay qolishiga sabab bo‘lgan. Ulardan faqat qo‘qonlik bo‘lgan 49 nafari Nasimxon Qayumov (1941-2009) yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirilgan holda 2007-yilda “Qo‘qon shoirlari” nomi ostida nashr etilgan.

Olimning eng katta yutuqlaridan biri arab va fors tillaridan yaxshi xabardor bo‘lganligidir. “Afzal ut-tazkor fi zikr ush-shuaro val ash‘or”, “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-as‘hob”, “Namunai adabiyoti tojik” asarlari olim tomonidan zo‘r mahorat

¹⁵ Тожибоев Р. Маърифатга бахшида умр. // Қўқон садоси. 2006. №8. –Б.2.

¹⁶ Пулатжон Қайюмий. Хўқанд тарихи ва унинг адабиёти (нашрга тайёрловчи Қайюмов А.). –Тошкент: Tamaddun, 2011. –Б.262.

¹⁷ Po‘latjon Qayyumiy. Tazkirai Qayyumiy. Qo‘lyozma. O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi. Inv. №734. –S.631.

bilan tarjima qilgan. Ushbu tarjimalar jamlansa 2500 nafar atrofidagi shoir haqida ma'lumot berilgan bo'ladi.

Ikkinchi bob **“Tazkirai Qayyumiy” asarining tuzilishi va matniy xususiyatlari**” deb atalgan. *“Tazkirai Qayyumiy”* qo'lyozmasining manbahunoslik tadqiqi” deb nom olgan 2.1.-paragrafda tazkira qo'lyozmasining manbaviy jihatlari, o'ziga xos xususiyatlari, davr manbahunosligi namunalari bilan o'xshash va farqli tomonlari, yutuq va kamchiliklari kabi masalalarga e'tibor qaratildi.

“Tazkirai Qayyumiy” qo'lyozmasining yagona nusxasi O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida №734 inventarda saqlanmoqda. Muallifi – Po'latjon domulla Qayyumiy. Tazkira XX asrda arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvida bitilgan kam sonli, nodir adabiy manbalardan biridir. Asar muallifning deyarli butun umrlik mashaqqatli ilmiy izlanishlari samarasidir. Kotibxattot vazifasini ham muallifning o'zi ado etgan. Qo'lyozmaning oqqa ko'chirilishi uning ichki jildiga muallif qo'li bilan yozilgan dastxatga ko'ra, 1953-yilda boshlanib, 1960-yilning 15-sentyabrida nihoyalangan.

Tazkiradagi shoirlarning katta qismi mumtoz adabiyot vakillari sanalsa-da, muallifning ular to'g'risida unikal ma'lumotlarni qo'lga kiritgani, o'tmish shoirlariga o'z davri adabiy jarayonidan kelib chiqib, zamonaviy ruhda yondoshganligi uning o'ziga xosligini ta'minlaydi.

Qo'lyozma oddiy daftar qog'oziga kitobat qilib ko'chirilgan. Keyinroq uning ustidan qora rangli karton muqova qilingan. Asar jildining ichki tarafiga 1935-yilda chop etilgan “Mash'ala” jurnalining №2 sonida bosilgan Po'latjon Qayyumiyning pedagoglik faoliyatiga bag'ishlab yozilgan maqoladan parcha surat qismi bilan birgalikda muallifning o'g'li, akademik A.P.Qayumov tomonidan yopishtirib qo'yilgan. Maqolaning to'liq qismida olimning “Nozil Xo'jandiy” haqidagi maqolasi ham bosilgan (II qism 4-ilovaga qaralsin).

Tazkira uzoq yillar davomida A.P.Qayumovning shaxsiy kutubxonasida saqlangan. Akademik olim vafotidan bir necha yil muqaddam ushbu mo'tabar manbani o'zi uzoq yillar mobaynida faoliyat olib borgan ilmiy tadqiqot maskani – O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyiga tuhfa qilgan.

Qo'lyozma o'rta asrlarga xos bo'lgan tazkiralarning tuzilishi, kitobatchilik ko'rinishlaridan ancha farq qiladi. Manbada XX asrga xos kitobatchilik unsurlari yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Manbani tashqi belgilariga ko'ra oddiy daftar sifatida baholash mumkin. Biroq mazmun e'tibori, unda aks etayotgan masalalar, muallifning yondashuvi butkul orginal va individual ekanligini isbotlaydi.

Qo'lyozma karton muqovaga jamlangan, muallif tomonidan alohida muqova holatiga keltirilgan. Dastlabki besh sahifa qaychi yordamida qirqib olib tashlangan. Ushbu sahifalarga qanday ma'lumotlar qayd etilgani, muallif ularni nega olib tashlagani noma'lum. 1-7-sahifalarda mundarija berilgan (Mundarija nihoyasiga yetkazilmagan, sahifalarda bo'sh qoldirilgan o'rinlar ko'p). 7-8-sahifalarda esa har bir harfga qanchadan shoir to'g'ri kelgani berilgan (Biroq ushbu sahifalar raqamlanmagan, sahifalash Navoiy fiqrasidan boshlangan). Shundan so'ng 6 sahifa bo'sh qoldirilgan. Tazkiraning o'ziga xos jihatlardan biri – an'anaviy basmala, hamd, munojot, na't qismlarining tashlab ketilganligidir. Ehtimol, muallif mazkur bo'sh sahifalarni aynan shu maqsadda tashlab ketgan bo'lishi mumkin. Ammo kommunistik mafkura hukmron bo'lgan bir sharoitda muallifning bunga jur'at qila

olmaganligi haqiqatga yaqinroq. Manba tuzilishi jihatidan muallifning qoralama nusxasi hisoblanadi. Muallif keyinchalik uni oqqa ko‘chirib chiqishni ko‘zda tutgan. Chunki asar davomida bir qancha sahifalarda tuzatishlar mavjud.

Sahifalar hajmi – 20x16,5. Matnlar hajmi – 17x10,5. Har bir sahifadagi satrlar soni – 22 qator. Bu standart o‘rta asrlar kitobchiligi xos bo‘lib, Po‘latjon Qayyumiy ham shu maqsadni ko‘zda tutgan. Matnlar safsar siyoh bilan ko‘chirilgan. Har bir sahifa qizil chiziqlar bilan besh bo‘lakka ajratilgan. Uch bo‘lak kichik hajmli. O‘ngdan ikkinchi bo‘lakka tartib raqami, uchinchi bo‘lakka shoir nomi yozilgan. Matn o‘n santimetrli to‘rtinchi katta bo‘lakka joylashtirgan. Beshinchi bo‘lak bo‘sh qoldirilgan. Sahifalar muallif tomonidan raqamlanib, so‘nggi sahifada qo‘lyozma kitob 631 sahifa ekanligi qayd etilgan: "631 بيتتینگ تشکيل ايتدي".¹⁸ Ammo, shuni ham qayd etish o‘rinliki, tazkira ko‘plab shoirlar haqida birinchi marta ma‘lumot bergan yoxud ba‘zi shoirlar bilan tanishtiruvchi yagona manbadir. Aynan shunday shoirlar fiqrasi yozib bo‘linganiga qaramay, ularning she‘rlari muallif tomonidan keyinchalik turli qo‘lyozmalardan topilib alohida qog‘ozga ko‘chirilgan hamda tazkiraga kiritilgan. Ular fiqra sahifalari orasiga yopishtirib chiqilgan. Mazkur sahifalar ham qo‘shilsa, uning hajmi 650 betdan oshadi. 368, 432, 615-sahifalar bo‘sh qoldirilgan.

Tazkirada shoirlar ijodidan keltirilgan she‘rlar ikki qator qilib joylashtirgan. Misralar orasiga ajratuv belgilari qo‘yilgan. Ba‘zi o‘rinlarda baytlar va muxammas bandlari orasiga siyohda gul solingan. Ayrim sahifalarda satrlar g‘oyat zich yozilgan. Qo‘lyozma boshida tazkiraga kiritilgan shoirlarning ro‘yxati alifbo tarzida keltirilgan. Bu ro‘yxatda shoirlar to‘g‘risidagi ma‘lumot berilgan sahifalar ko‘rsatilishi bilan birga ularning arab harfidagi tartib raqami ham berilgan.

Qo‘lyozma yozuvi ham o‘ziga xos. Yozuv turlaridan mayda, ixchamligi, ko‘p ma‘lumot bera olishlik imkoniyatlari hisobga olinib, nasta‘liq xati tanlangan. Lekin ba‘zi-bir holatlarda o‘tgan asrning 20-30-yillarida amalda bo‘lgan arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek yozuvining islohiy ko‘rinishi elementlari ham aks etgan. Ya‘ni qo‘lyozmada o‘rta asrlarga xos nasta‘liq xati va XX asr boshlari islohiy eski o‘zbek yozuvining o‘zaro qorishig‘ini bevosita kuzatish mumkin. Shu bilan bir qatorda, matnlar bir tekisda, muallif tomonidan sidirg‘asiga nihoyatda tushunarli holda yozilgan bo‘lib, nihoyatda xushxat. Chunki Po‘latjon Qayyumiy uzoq yillar davomida Qo‘qon shahar maktablarida o‘quvchilarga o‘zbek tili va adabiyotidan saboq berganligidan xat-savodi mukammal ko‘rinishda bo‘lgan.

Birinchi fiqra Alisher Navoiyga bag‘ishlangan. Sahifa boshiga 2-bet deb raqam qo‘yilgan. Boshlanishi:

"نواي اولوغ شاعر علي شير ميلادي ايللا 1441چي يلدە 9نچي فيورالده حيرات شهريده جدمتچي امير عايله سنده دونياگه كيلدي".

“Navoiy – ulug‘ shoir Alisher milodiy ila 1441nchi yilda 9nchi fevralda Hirot shaharida xizmatchi amir oilasinda dunyoga keldi”.

Tazkira oxiriga muallif eskartma (izoh) qoldirgan: " I جيلد. پولاتجان قيبومي. 324نفر شارني اوز ايچيگه الگن بولوب 20 نفر شار زمانداس برهيات شار لاريميز دور. 631 بيتتینگ تشکل ايتدي. 2نچي جيلدگه ينه هم متيريا لاريميز بار دور. قيبوماو پولاد. 04.1960. قوقان شهري".

¹⁸ Po‘latjon Qayyumov arxivi. Qo‘qon davlat muzeyi qo‘riqxonasi. 42-hujjatlar to‘plami.

“I jild. Po‘latjon Qayyumiy. 324 nafar shoirni o‘z ichiga olgan bo‘lub, 20 nafar shoir zamondosh, barhayot shoirlarimizdur. 631 betning tashkil etdi. 2nchi jildga yana ham materiallarimiz bordir. Qayyumov Po‘lad. 1960.04. Qo‘qon shahari”.

Tazkira qo‘lyozmasi qoralama nusxa bo‘lganligidan ko‘plab shoirlar kiritilmay, tarqoq materiallar holida qolib ketgan. Po‘latjon Qayyumiyning Anisiyga yozgan xati ham shundan dalolat beradi. Olim Anisiyni o‘z tazkirasiga kiritganini aytib, undan o‘z tarjimai holi haqida batafsil ma‘lumotlarni yozib yuborish hamda o‘z she‘rlaridan yana namunalar jo‘natishini so‘ragan (II qism 6-ilovaga qaralsin). Biroq Anisiy fiqrasi tazkira qo‘lyozmasida ham, nashrida ham uchramaydi. Ehtimol, muallifning qo‘lida tazkiraning boshqa bir qoralama nusxasi bo‘lgan yoki shoir haqidagi ma‘lumotlar parokanda varaqlardan o‘rin olib, tazkiraga kiritilmay qolib ketgan.

E.Samandar A.Qayyumov bilan o‘tkazgan ilmiy-adabiy suhbatida A.Qayyumov “Tazkirai Qayyumiy”dan Charxiy va Yoriyning mushoirasini keltiradi. H.Orasli ham adabiy uchrashuvlarning birida Oshiqning qabriga yozilgan baytni o‘qiydi hamda ushbu ma‘lumotlarni “Tazkirai Qayyumiy”dan olganligini aytadi¹⁹.

Lekin Charxiy va Yoriy mushoirasi ham, Oshiqning qabrida yozilgan bayt ham tazkira qo‘lyozmasida berilmagan. Mazkur faktlar ham tazkiraning boshqa qoralama nusxasi bo‘lgan bo‘lishi mumkin degan ehtimolni yuzaga keltiradi. Ushbu ma‘lumotlar, o‘z navbatida, olim o‘z tazkirasini yanada salmoqdor, oldingidan-da yirik hajmli manbaga aylantirishni reja qilgan, degan fikrga kelishga undaydi. Biroq bu jarayon muallifning keksaligi va o‘zi qayd etgan “tuber kuluz”, “gipertoniya” kasalliklari va oxir-oqibat vafoti sabab amalga oshmay qolgan.

2.2.-paragraf “*Tazkirai Qayyumiy*” qo‘lyozmasining matniiy tadqiqi” deb nomlangan. Tazkirada har bir o‘ringa muallif tomonidan mumkin qadar izoh berib ketilgan, ya’ni har bir sahifaga qizil qalam bilan alohida jadval ajratilgan. Dastavval, muallif haqida ma‘lumot va undan so‘ng uning she‘rlaridan namunalar keltirilgan. Bu tazkiraning o‘ziga xos tasviriy namunasi. Tazkiradagi deyarli barcha ma‘lumot va she‘rlar muallifning o‘zi tomonidan ko‘chirib yozilgan. Lekin ba’zi istisno o‘rinlar ham mavjud. Jumladan, Mahjur Xo‘qandiyga bag‘ishlangan fiqrada shoirning yetti bandli “aylar” radifli musaddasini berishda she‘rning Charxiy (1900-1979) tomonidan alohida qog‘ozga ko‘chirib yozilgan xat namunasi kiritib ketilgan. She‘r katak daftar sahifasiga safsar siyoh bilan xushxat mayda nasta‘liqda yozilib, 402-403-sahifalar o‘rtasiga yopishtirib ketilgan. Sahifa ostida she‘r ko‘chirilgan sana va imzo ko‘rsatilgan: 08.07.1959. “Alxatu-l-Charxiy Xo‘qandiy” (ال خطل)²⁰. (Fiqralar izchilligi va yaxlitligini ta’minlash maqsadida tazkiranavis ushbu she‘rni ilova tarzida havola etgan, deyish mumkin.

Bundan tashqari, Habibiyning “hushyor bo‘l” radifli g‘azali, “yosh” tajnisli tuyug‘ining ham she‘r muallifi tomonidan daftar qog‘oziga ko‘chirilgan nusxasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tazkiraning 612-613-sahifalari orasiga yopishtirib qo‘yilgan. Bu haqida muallif shunday eskartma qoldirgan:

¹⁹ Самандаров Э. Улар шундай эдилар. // Хўканд тарихи ва унинг адабиёти. –Тошкент: Tamaddun, 2011. – Б.373.

²⁰ Po‘latjon Qayyumiy. Tazkirai Qayyumiy. Qo‘lyozma. O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi. Inv. №734. –S.402-403.

"شاعر حبیبینینگ اوز قلمی ایلا یازمیش شعریدن. 1914نچی یلده اندیجانده یازمیشدور. فقرگه یوبارمیشدور. 1958نچی یل 1نچی آکتیابر".

"Shoir Habibiyning o'z qalami ila yozmish she'ridan. 1914nchi yilda Andijonda yozmishdur. Faqirga yubormishdur. 1958nchi yil 1nchi oktyabr"²¹. Ko'plab shoirlar qatorida Habibiyga ham tazkiranavis o'z asariga kiritish maqsadida uning ijodidan namunalar so'rab xat yo'llagan (II qism 5-ilovaga qaralsin). Po'latjon Qayyumiy o'z davridagi barcha shoirlar qatori Habibiy bilan ham do'stona aloqada bo'lgan. Buni Habibiy tomonidan yozilgan marsiya-tarix ham isbotlaydi. Qolgan barcha xatlar Po'latjon Qayyumiy qalamiga mansub.

"Tazkirai Qayyumiy"ga "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti", "O'zbek adabiyoti namuna daftari", "Tazkirat ush-shuaro"lardan ma'lumotlarni ko'chirib o'tkazishdan oldin faktlar, xususan, shoirlar faoliyati bilan bog'liq sanalarda nomutanosibliklarning yuzaga kelib qolganligi sabab yana bir bor tahrir va tahlildan o'tkazgan, xato va kamchiliklarni bartaraf etgan. Tazkira qo'qonlik shoirlar: Asg'arali Charxiy, Nasriddin Bokiy, marg'ilonlik shoir, adabiyotshunos va tarixchi Mufazzal maxdum kabi zamonasining yetuk ziyolilari tahriridan ham o'tkazilgan. Jumladan, Mufazzal maxdum haqida muallif shunday yozgan:

"تذکیره مزگه علمی یاردمده بولوب, تعریخی معلوماتلاری ایلا باییتدیلار".

"Tazkiramizga ilmiy yordamda bo'lub, tarixiy ma'lumotlari ila boyitdilar"²².

Olim shoir shaxsiyati va hayotiga bevosita aloqador hodisalarni eng daqiq nuqtalarigacha tadqiq etadi. Jumladan, Qoriyi Qunduziy, Fazliy, Hoziq, Muqimiy, Sayqaliy, Tajalliy fiqralarida mana shunday holatni ko'rish mumkin.

Nasimiy va Zululiy borasidagi ilmiy izlanishlar natijasida yangi materiallar to'plangan. Ular keyinroq alohida qog'ozlarga bitib, 530 –"a", 530 –"b", 530 –"v" shartli raqamlari bilan yopishtirib chiqilgan. Bunday sahifalarga ko'proq shoirlarning keyinchalik topilgan she'rlari bitilgan. So'fi Olloyorga bag'ishlangan №23-fiqrada 51-52-sahifalar orasiga olim keyinroq bir varaq yopishtirgan:

"بو غزل ترتیبیدن صونگره تاپیلدی. شونگه بنا 52 بیتگه قوشیب قویولدی".

"Bu g'azal tartibdan so'ngra topildi. Shunga binoan 52-betga qo'shib qo'yuldi". Mazkur jarayonlar tazkira tuzilishini o'zgartirib yuborgan. Tazkiradagi fiqralarni tuzishda olim avval ma'lumotlarni berib, so'ng she'riy namunalarni keltirishni maqsad qilgan. Biroq shoirlar hayoti va ijodini yoritish davomida Po'latjon Qayyumiy tinimsiz materiallar yig'ib borgan va yangidan-yangi ma'lumotlarni qo'lga kiritgan. Muallifning barcha ma'lumotlarni tazkirada berishga intilganligidan aksariyat hollarda fiqralar betartiblikka uchranganligini ko'rish mumkin. Ya'ni, shoirning hayoti va faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan uning ijodidan namunalarning aralash, tartibsiz joylashishi kuzatiladi. Nisbatiy fiqrasida shoir haqida ma'lumot bergan muallif uning ortidan she'rini keltiradi. She'rdan so'ng yana u haqida ma'lumot o'rin olgan. Ma'lumotlardan so'ng yana she'r taqdim etiladi. Undan so'ng olim keyinroq topgan ma'lumotlarini joylashtiradi. Bayondan so'ng yangi topilgan she'r keyin yana ma'lumotlar va undan so'ng shoirning boshqa bir she'ri beriladi.

²¹ O'sha manba, 614-sahifa.

²² O'sha manba, 610-sahifa.

Tazkirada, odatda, she'rlar to'liq taqdim etilgan. Ko'pincha, ikki yoki uchta she'r (ko'proq g'azal) berilib, ba'zan ular adadi to'qqiztagacha yetgan. Masalan, G'oziy, Ravnaqdan beshta; Amiriy, Gulxaniy, Uvaysiy, Ma'dandan oltita; Furqatdan yettita; Muqimiydan to'qqizta she'r to'liq holda berilgan. Mazkur jarayon asarning badiiy material jihatidan boy va mukammalligini ta'minlagan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Tazkirai Qayyumiy**"dagi **Qo'qon shoirlari she'rlarining matniy jihati va qiyosi**" deb nomlangan. "*Tazkira matni va nashrining qiyosi*" deb ataluvchi 3.1.-paragrafda qo'lyozma va nashrning o'zaro qiyosiy aspektida o'rganilishi va buning natijasida qo'lga kiritilgan farqlar xususida so'z boradi. Bunday holatlarning yuzaga kelishiga qo'lyozmaning A.Qayumov tomonidan nihoyatda qisqa muddatda tabdil qilib tugatilgani, A.Qayumov tazkira ma'lumotlarini keng ilmiy jamoatchilikka tezroq tuhfa etishni maqsad qilgani, tazkira yozilayotgan davrda mavjud bo'lgan hukmron mafkura talabi bilan o'rin olgan muallif qaydlari nashrga tayyorlovchi tomonidan tahrir etilgani, Po'latjon Qayyumiy keksalik tufayli yo'l qo'ygan kamchiliklar hamda tazkira yozilayotgan vaqtda noaniq bo'lgan, keyinchalik adabiyotshunos olimlar tomonidan ilmiy aniqlik kiritilgan o'rinlar A.Qayumov tomonidan tuzatilgani, tazkira nashrida mavjud xato va kamchiliklarning katta qismi nashriyot xodimlari tomonidan yo'l qo'yilganligi kabi omillar sabab bo'lgan. Mavjud farqlar quyidagicha tasniflandi:

1. *Aziz Qayumov tomonidan qayta ishlangan, to'ldirilgan o'rinlar.* Tadqiq jarayonida bunday o'rinlarning 75tasi aniqlandi. Chunonchi, qo'lyozmada Aziziy "she'ridan namuna" deyilgan, biroq she'r yozilishi kerak bo'lgan sahifa qismi bo'sh qoldirilgan. Aziziy she'ridan namunani A.Qayumov 1959-yilda chop etilgan "O'zbek adabiyoti" III jild 169-betidan olib kiritgan (15-ilovaga qaralsin).

2. *Tabdilda tushirib qoldirilgan o'rinlar.* Tazkira qo'lyozmasi va nashri qiyosiy-tipologik usul asosida o'rganilganida bunday o'rinlarning 32tasi aniqlandi. Jumladan, Yusuf Bade'iy va Vidoiylarga bag'ishlangan fiqralar butunicha qoldirib ketilgan (I qism 2-ilovaga qaralsin).

3. *Tabdilda xato berilgan ma'lumotlar.* Matniy-qiyosiy tadqiqda ulardan 23tasi aniqlandi. Masalan, Vola fiqrasida: "ابد ال ولي تورہ نینگ ھوليسيندگی سحبتدن ايان بوليشيچہ،" "Abduvali to'raning havlisidagi suhbatdan ayon bo'lishicha, shoir Volaning nomi mulla Qurbonxondur" jumlasidagi Abduvali to'ra ismi Abduxoliq to'ra deya tabdil qilingan²³.

4. *Shoirlar sirasini yoritishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar.* Bunday kamchiliklardan 18tasi aniqlandi. Chalkashliklar turlicha bo'lib, eng muhimlari bir xil raqam qo'yilgan ham raqamlash yoddan ko'tarilgan shoirlar fiqralaridir. Chunonchi, Mujrim Xo'qandiy, Manzur; Tajalliy, Sadoiy; Xislat II, Ahqar; Maxmur II, Berdiy; Muhyi, Aziz, Xodimiy; Muazzam, Nozima; Komiy, Kotib II larga bir xil raqam qo'yilgan bo'lsa, Gadoiy, Ramziy II, Qurbon, Munis II, Vahhoj, Dakkaniylarga raqam qo'yilmagan. Natijada, tazkira so'ngso'zida shoirlar soni 324 nafar deb keltirilsa-da, tartiblash 321 gacha amalga oshirilgan, xolos. Aslida mazkur kamchiliklar hamda nashrda tushirib qoldirilgan ijodkorlar ham qo'shib hisoblanganida shoirlar soni 328 nafar ekanligi aniqlandi.

²³ Qo'lyozma. –S.176.; Nashr. –B.200.

5. *Qo'lyozmada yo'l qo'yilgan g'alizliklarning nashr jarayonida A.Qayumov tomonidan to'g'rilanishi.* Qo'lyozmada fikrni taqdim etishda 161 o'rinda uslubiy g'alizlikka yo'l qo'yilgan bo'lib, ularning barchasi nashr jarayonida A.Qayumov tomonidan to'g'rilangan. Jumladan, Muqimiyning Buxoroda tahsil olib qaytgani haqida "بر شاعر بوليب تنليلب كيليبور" "Nihoyat, bir shoir bo'lib tanilib kelibdur" misrasi "Nihoyat, zo'r shoir bo'lib tanilib kelibdur" deya to'g'rilab ketilgan²⁴.

6. *Nashr jarayonida yo'l qo'yilgan uslubiy g'alizliklar.* Nashr jarayonida 613 o'rinda uslubiy g'alizlik yo'l qo'yilgan bo'lib, ularning o'rniga Po'latjon Qayyumiy tomonidan aslyatda berilgan variantlarni qabul qilish maqsadga muvofiq. Masalan, Said Ahmad Mirzoning "اي كوركلي لار خيالي اله موبتلا كونگل" "Ey ko'rklilar xayoli ila muhtalo ko'ngil" misrasi nashrda "Ey ko'rklilar hayli ila muhtalo ko'ngil" deya berilgan²⁵.

7. *Tazkira qo'lyozmasi va nashri o'rtasidagi imloviy farqlar.* Tazkira qo'lyozmasi va nashrining matniy-qiyosiy o'rganish natijasida eng ko'p farqli holatlar aynan matndagi so'zlar imlosining turlicha berilishida kuzatilib, bunday holatlarning 2327tasi aniqlandi. Chunonchi, Navoiy fiqrasidagi birgina "1469nchi yilda Husayn Boyqoro Xuroson shohi bo'lub, Hirot taxtiga o'lturdi. Alisher Navoiyning o'z yoniga chaqirdi" jumlasidagi "شاه" ("shoh") so'zi "podshoh"ga, "اوز يانيگه" ("Hirot taxtiga o'lturdi") "Hirot taxtiga o'lturdi", "چقيردي" ("o'z yoniga chaqirdi") sintagmasi esa "o'ziga chaqirdi" deb berilgan.

3.2.-paragraf "*Qo'qon shoirlari she'rlarining tazkira va devon variantlari qiyosi*" deb nomlanadi. Po'latjon Qayyumiy 1945-1955-yillarda Qo'qon o'lkani o'rganish muzeyida tarix bo'limining mudiri vazifasida xizmat qilgan davrida Qo'qon adabiy muhiti shoirlari asarlarining avtograf nusxalarini, Qo'qon xonligida Amiriy, Muhammad Alixon kabi xonlar davrida ko'chirilgan qo'lyozmalar va chor Rossiyasi tuzumi paytida litografiyada bosilgan toshbosmalarni to'plab, ulardan o'z tazkirasini tuzishda foydalangan. Mazkur nusxalarning shoirlar qalamiga mansub boshqa qo'lyozmalar, xususan, O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, O'zR FA ShI fondlarida saqlanayotgan manbalar bilan o'xshash va farqli jihatlari mavjud. Qo'qon adabiy muhiti vakillarining tazkiraga kiritilgan she'rlari mazkur fondlardagi shoirlar devonlari bilan qiyosiy-tipologik metodda o'rganilib, o'xshash va farqli xususiyatlari aniqlandi.

Shuni yoddan chiqarmasligimiz lozimki, tazkira tuzilgan paytda unga kiritilgan shoirlar devonlari joriy yozuvda nashr qilinmagan, asarlari keng miqyosda matniy-qiyosiy o'rganilmagan edi. Olim o'zida mavjud bo'lgan jamiki ma'lumotlarni kelajak avlodga yetkazib qoldirishga intilgan. Shunday bo'lsa-da, tazkiraga kiritilgan Qo'qon shoirlari she'rlarini mazkur shoirlar dastxat nusxasi, muallif variantiga yaqin qo'lyozmalari yoki joriy yozuvda amalga oshirilgan nashrlari bilan solishtirilganida bir-biriga yaqin ekanligi, hatto ayrim o'rinlarda tazkiradagi variantlarning shaklan va mazmunan she'ning umumiy qurilishiga mos ekanligi olimning nechog'lik zahmatli mehnat qilganligiga dalolatdir.

Tazkirada keltirilgan Qo'qon shoirlaridan Amiriy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Firoqiy kabi ijodkorlar she'rlari devondagi nusxalari bilan qiyosiy-tipologik

²⁴ Qo'lyozma. –S.186.; Nashr. –B.211.

²⁵ Qo'lyozma. –S.10.; Nashr. –B.19.

metod asosida o‘rganildi. Chunonchi, Nodirabegimning “Go‘zal yoring‘a, ey bodi sabo, yetkur salomimni” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali ikkinchi baytida tafovutlar yaqqol ko‘zga tashlanadi:

"كونگل در دیني قیل و قالیغه تکرار ایمس حاجت

تحدیر برله روشن ایله مزموني کلامیمني"

*“Ko‘ngul dardini qil-u qolig‘a takror emas hojat,
Tahayyur birla ravshan ayla mazmuni kalomimni”*²⁶.

"كونگل در دیني تقریر یغه قیل و قال ایمس حاجت

تقگر برله روشن ایله مزموني کلامیمني"

*Ko‘ngul dardini taqririg‘a qil-u qol emas hojat,
Tafakkur birla ravshan ayla mazmuni kalomimni*²⁷.

Xuddi shu kabi holatlar Muqimiy fiqrasida ham kuzatilib, shoirning “sen ham” radifli g‘azali yettinchi bayti tazkirada tubandagicha berilgan:

مقیمي، قیسی گل عشقیده کویدینگ میسلی بولبولدیک،

فیغانو نالا ایلاب داد بیسیار ایلادینگ سین هم.

Muqimiy, qaysi gul ishqida kuyding misli bulbuldek,

Fig‘on-u nola aylab dod bisyor aylading sen ham²⁸.

Shoir she‘rlarining Q.Pardayev va A.Turdialiyev tomonidan matniy-qiyosiy tadqiq etilishi natijasida qo‘lga kiritilgan ilmiy xulosalari asosida nashr etilgan to‘plamda quyidagi variantni ko‘rish mumkin:

Muqimiy, qaysi gul ishqida mundog‘ o‘tlu bulbuldek,

Fig‘on qilding, kuyub faryodi bisyor aylading sen ham²⁹.

Firoqiyning “kamdan-kam” radifli g‘azali devonda yetti bayt, tazkirada sakkiz bayt. Ushbu bayt shoir qo‘lyozma devonida uchramaydi:

وفاسیز بو جحان زیباییگه دل بیرمه کوپ زینهار،

تپالمسین قیدیرمه یاری بی آزار کمدن-کم.

Vafosiz bu jahon zebosiga dil berma ko‘p zinhor,

Topolmassen qidirma yori beozor kamdan-kam³⁰.

Shoirning “mayliga” radifli muxammasi tazkirada berilgan. Biroq “Devon”da uchramaydi. Po‘latjon Qayyumiy ushbu she‘rni biror boshqa manbadan ko‘chirgan yoxud devonga kirmay qolgan. Shoir she‘rlarining farqlardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, tazkira 1953-1960-yillarda tuzilgan, “Devon”ga esa 1961-1964-yillarda tartib berilgan. Shu sababdan Po‘latjon Qayyumiy shoir she‘rlarini ko‘chirishda qoralama nusxalardan foydalangani, devon tartib berilishi oldidan she‘rlar muallif tahririga uchragani haqiqatga yaqin.

XULOSA

Dissertatsiyadagi tahlillarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

²⁶ Po‘latjon Qayyumiy. Tazkirai Qayyumiy. Qo‘lyozma. O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi. Inv. №734. –S.136.

²⁷ Nodira. Devon. Qo‘lyozma. O‘zR FA ShI Asosiy fondi. Inv. №4182. –S.124.

²⁸ Po‘latjon Qayyumiy. Tazkirai Qayyumiy. Qo‘lyozma. O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi. Inv. №734. –S.195.

²⁹ Муқимий. Тўла асарлар тўплами (Тузувчи: Турдиалиев А., Пардаев Қ.). –Тошкент: Иқтисодиёт, 2021. –Б.83.

³⁰ Po‘latjon Qayyumiy. Tazkirai Qayyumiy. Qo‘lyozma. O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi. Inv. №734. –S.597.; Firoqiy. Devoni Firoqiy. Bahtiyorjon Do‘stmatov shaxsiy kutubxonasi. –S.148.

1. Tazkiralalar adabiyotshunoslikning barcha sohalarini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Arab, fors-tojik, usmonli turk, ozarbayjon va o'zbek tazkirachiligini keng planda muntazam, izchil va tizimlilik asosida o'rganish zarur. Qo'qon adabiy muhitiga aloqador tazkira va antalogiyalarga alohida diqqat qaratish mazkur muhitning yanada chuqurroq tadqiq etilishi uchun asos bo'ladi.

2. Qo'qon adabiy muhiti o'rganilayotgan davrda mumtoz an'analarni rivojlantirgan holda, o'ziga xos adabiy jarayonni aks ettiruvchi, ko'plab adabiy manbalarni yetkazib bergan boy va uzoq davrni tashkil etadi. Mana shundan kelib chiqib, adabiy muhitni manbalar, xususan, tazkiralarga tayangan holda izchil va tizimli tadqiq etish soha rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Po'latjon Qayyumiy hayoti va ilmiy biografiasining to'liq tadqiqi Qo'qon adabiy muhitining keng ko'lamda o'rganish imkonini beradi. Olimning adabiyot, tarix, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik, o'lkashunoslik, onomastika kabi fan tarmoqlari hamda ma'rifatchilik va xalq ta'limi kabi yo'nalishlarga qo'shgan hissasi bilan mazkur sohalar rivojida munosib o'rin egallaydi.

4. Po'latjon Qayyumiy ilmiy merosi asosini tashkil etuvchi: "O'zbek adabiyoti namuna daftari" ("Turkiy she'rlar to'plami"), "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti", "Tazkirat ush-shuaro" kabi qo'lyozmalar adabiyotshunoslik, xususan, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtai nazaridan muhim manbalardir. Birinchi bora olim ilmiy merosining ko'lami qo'lyozmalari bilan asoslab aniqlandi.

5. "Tazkirai Qayyumiy"ning O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi Qo'lyozmalar fondi 734 inventar raqamli avtograf nusxasi manbashunoslik nuqtayi nazaridan to'liq ilmiy tavsif qilindi.

6. Tazkiraning asosini tashkil etgan Qo'qon adabiy muhiti shoirlari ularning ushbu muhitdagi o'rni, faoliyatining mazkur muhit rivojida nechog'lik ahamiyat kasb etgani nazarda tutilib tasniflash asosida o'rganildi, she'rlarining g'oya va mavzusi hamda tuzilishi nuqtayi nazaridan qayta baholandi.

7. Po'latjon Qayyumiyning o'z tazkirasini tuzishda murojaat etgan manbalar, olimning ulardan qay darajada foydalangani, ma'lumotlarning qayta ishlanish darajasi qiyosiy-tipologik aspektida o'rganildi.

8. "Tazkirai Qayyumiy"ning matniy tadqiqi: shoirlar sirasi, asarlar matni, janr tabiati, mundarijasi va mazmuni, tazkiraning o'ziga xos xususiyatlari, unikal ma'lumotlari, muallif yondashuvi kabi jihatlar adabiyotshunoslik me'zonlari asosida qayta baholandi.

9. Tazkira qo'lyozmasi va nashri qiyosiy tadqiq etildi: Aziz Qayumov tomonidan qayta ishlangan, to'ldirilgan o'rinlar; tabdilda tushirib qoldirilgan qismlar; xato berilgan ma'lumotlar; shoirlar sirasini yoritishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar; tazkira qo'lyozmasi va nashrida yuzaga kelgan uslubiy g'alizliklar va imloviy farqlar aniqlandi va tahlil etildi.

10. Tazkira qo'lyozmasi va nashrining qiyosiy o'rganilishi natijasida aniqlangan yangiliklar asosida "Tazkirai Qayyumiy" qayta tabdil qilindi.

11. "Tazkirai Qayyumiy"dagi Qo'qon shoirlari asarlarining tazkiradagi va o'z devonlaridagi variantlari qiyosiy-tarixiy yondashuv asosida o'rganildi.

12. Amiriy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Firoqiy kabi shoirlar she'rlari asosida tazkira va devonlardagi she'rlarning matniy jihati ilmiy baholandi, ularning sahif matni yuzasidan she'riy variantlar taqdim etildi.

**SCIENTIFIC DEGREE GRANTING COUNCIL NUMBER
DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 AT THE TASHKENT STATE UNIVERSITY OF
UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE NAMED ALISHER NAVOI**

**ACADEMY OF SCIENCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
STATE MUSEUM OF LITERATURE
NAMED AFTER ALISHER NAVOI**

AXMADALIYEV LOCHINBEK MAXAMADYUSUF O‘G‘LI

**COMPARATIVE STUDY OF THE WORKS OF KOKAND POETS IN
“TAZKIRAI KAYYUMI”**

10.00.10 – Textology and literary source studies

**ABSTRACT OF THE DISSERTATION OF
DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) IN PHILOLOGY**

TASHKENT 2024

The theme of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) on Pedagogy was registered by the number B.2022.2.PhD/Fil2684 at the Supreme Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan

The dissertation was conducted in the Alisher Navoi State Literature Museum of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (uzbek, russian, english (resume)) on the web site (www.tsuull.uz) of the scientific council and on the informational-educational portal “ziyonet” (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor: **Juraboyev Otabek Rustambek ugli**
candidate of philological sciences, senior researcher

Official opponents: **Zohidov Rashidjon Fozilovich**
doctor of philological sciences, professor

Hasanov Nodirkhan Dadakhanovich
doctor of philological sciences, associate professor

Leading organization: **Namangan state university**

The defense of the dissertation will be held on _____ “___”, 2024 at _____ o'clock at the meeting of the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.fil.19.01 awarding scientific degrees at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi. (Address: 103 Yusuf Khos Hajib Street, Yakkasaray District, Tashkent, 100100. Tel: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42- 44, (<http://www.tsuull.uz>).

The doctoral dissertation is available at the Information Resource Center of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi (registered with number ____). (Address: 103 Yusuf Khos Hajib street, Yakkasaray district, Tashkent, 100100. Tel: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44; (<http://www.tsuull.uz>).

The abstract of the dissertation was distributed on “___” _____ 2024.
(Register protocol № _____ on “___” _____ 2024).

H.A.Dadaboyev,
Chairman of the scientific council
awarding scientific degrees,
doctor of filological sciences, professor.

Q.U.Pardayev,
Secretary of the Scientific Council
awarding scientific degrees,
doctor of filological sciences, professor.

Sh.S.Sirojiddinov,
Deputy of chairman of the scientific
seminar under the Scientific Council
awarding scientific degrees,
doctor of filological sciences, academic.

INTRODUCTION (Abstract of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD))

Relevance and necessity of the dissertation topic. Literary studies have been studying literary sources from various aspects related to the field for a long time, and it is increasingly proving that these spiritual treasures are the rich heritage of the entire human civilization. A lot of research is being carried out on the scientific research of material and written sources of various forms created since the establishment of human society and, as a result, the delivery of the most important and necessary information contained in them to the next generation. As a result of these scientific researches, the spirituality, language, culture, religious views and mentality of each nation and people are becoming richer. In parallel with this process, the development of fields such as literary source studies, bibliography, archival studies, and textual studies, as a result of the increasing share of the general sciences, collection of books, manuscripts, lithographs, printed sources, scientific description, scientific-critical study, textual-comparative research, analysis of its theoretical foundations is gaining actual importance in the research methods and scientific investigations used by experts in the field.

In the field of literary source studies and textual studies, the literary heritage of poets and writers and the scientific heritage of scientists are summarized, scientifically described, the author's idea of writing his work was formed and he began to collect material until now. practical work on studying on the basis of classification, bringing out the achievements and useful aspects that can serve the development of literary and aesthetic views of mankind and spreading them to the general public is regularly continued. The relevance of these works can be seen in several factors. For example, the study of the ancient sources inherited from the ancient peoples and peoples of the East, which are the center of science, is determined by their role in the formation and development of world civilization. It is necessary to consistently continue and continuously develop scientific research on the detailed study of manuscripts written by Eastern thinkers, scientists, writers and poets based on the achievements made by experts in the field.

In Uzbekistan, it is known that textual studies and literary source studies are a field with a long history and many achievements. “We should pay special attention to inculcating the priceless legacy of our great scholars and writers, our dear saints, the bravery of our invincible commanders and figures into the minds of young people, and strengthening their feelings of national pride and pride”³¹. Not only Uzbek, but also all Central Asian peoples have an important place in the literature of Kokand literary environment. Among them, there are those whose life, work and scientific heritage have not been fully researched yet. Creative laboratory, in particular, the life and literary activity of creators whose manuscripts and archives have not yet been explored on a large scale, creating a bibliography, revealing the history of writing and text editing of their works, collecting and comparing

³¹ Mirziyoyev Sh.M. Taraqqiyot yo‘limizning shiddati yanada oshaveradi. Oliy Majlisga Murojaatnoma. // Xalq so‘zi. №65. –B.2.

manuscript copies of a reliable text. creation, determination of their importance are among the current issues of the field.

In this place, the significance of tazkiras, which indicate the literary environment of this period, is great. One of such tazkiras is “Tazkirai Kayyumi” by Pulatjon domulla Kayyumi (1885-1964). Although the Tazkira was written in 1953-1960, the materials included in it were collected and edited by the author during his entire scientific career.

Tazkira mainly contains information about turkic (uzbek) creators and samples of their poems, from classic poets to contemporaries of tazkiranavis (XII century to II half of XX century). In the work, you can find poets who are well-known for the science of literature, and writers whose lives and literary heritage have not yet been studied, but who have a high level, sharp taste and delicate taste.

Forming a complete scientific description of the “Tazkirai Kayyumi” manuscript, carrying out a source study of the work, determining its textual identity, publishing the work filled with scientific innovations obtained on the basis of a comparative study of the tazkirai manuscript and its edition. to implement, to show the similar and different aspects of the poems of Kokand poets that took place from it by comparing them with the versions in their divans, to determine the importance and value of the work as a literary and historical source, on the basis of classifying the scientific activity of Pulatjon Kayyumi Issues such as consistent and regular learning demonstrate the relevance of this dissertation topic. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan №2789 of February 17, 2017 “On measures to further improve the activities of the Academy of Sciences, organization, management and financing of research and development”, Decree of April 20, 2017 №2909 “On measures for further development of the higher education system”, PQ-2995 of May 24, 2017 “Measures for further improvement of the system of preservation, research and promotion of ancient written sources” about”; №304 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated May 22, 2017 “On measures to further improve the post-university education system”, №891 dated November 6, 2017 “On “On measures to further improve the activities of the Alisher Navoi State Literature Museum of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan”; Decisions of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 16, 2020 №PQ-4680 “On measures to fundamentally improve the system of personnel training in the field of Oriental studies and increase scientific potential” and other regulatory legal documents related to the field. This research can serve to a certain extent in the implementation of tasks.

Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic. The dissertation was carried out in accordance with the priority direction of the republican science and technology development I. “Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an informed society and a democratic state”.

Level of study of the problem. So far, considerable work has been carried out on the theoretical issues of textual studies and literary source studies, in particular, on the literary environment of the Kokand Khanate. Including Y.Ekman, K.Eraslan, A.Tugon, A.Samaylovich, Y.Bertels, S.Ayni; M.Solikhov, A.Kayumov, A.Abdugafurov, M.Kadirova, A.Madaminov, R.Tojiboyev, A.Turdialiyev, E.Ibrahimova, Sh.Sirojiddinov, N.Jabborov, R.Zokhidov, O.Juraboyev, Z.Kobilova, A.Erkinov, S.Rafiddinov, N.Khasanov, K.Pardayev, D.Abdullayeva, A.Dekhkanov, D.Zokhidova, N.Mukhiddinova³² etc. are proof of this.

The 19th century was the century of opening the way for important scientific research and trends in literary studies as well as in other fields. In particular, by the end of the century, some small studies and scientific-theoretical observations about the literary environment under the leadership of Amiri began to be carried out for the first time in Russian literary studies. The first attempts to literally study the literature of the period coincided with the middle of the 20th century. For example, Pulatjon Kayyumi did several important things in this regard (this will be discussed in detail in Chapter 2). In 1960, A.Kayumov used the term “Kokand literary environment” for the first time in relation to this literary environment.

³² Eckmann J. Harezmi, kipcak ve cagatay turkcesi uzerine arastirmalar. –Ankara, 1996. –S.232.; Eraslan K. Azim hâce'nin hikmetleri. –Istanbul: Türk dili ve edebiyatı dergisi, 1971. –S.193-230.; A.Zeki Velidi Togan. Bugunku Turk tili: Turkistan ve yakin tarihi. –Istanbul, 1981. –501 s.; Самойлович А.Н. Собрание 30 Царских поэтов сопутствующих Ферузу Хива. //ЗВОРАО.-СПБ.,Т.19(1909).вып.4. –С.0198-0209; Бертельс Э.Е. Избранные труды. Навои и Джами. –Москва,1965.; Садриддин Айний. Намунаи адабиёти тожик. –Москва, 1926. –С.195–197.; Миён Бузрук. Ўрта Осиё ва ўзбек адабиёти тарихига умумий қараш. –Тошкент: Ўздавнашр, 1930. –Б.74-86.; Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси (XV-XIX асрлар). –Тошкент, 1945. –Б.179-190.; Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити (XVIII-XIX асрлар). –Тошкент: Фан, 1961. –360 б.; Абдуғафуров А. Зокиржон Фурқат. –Тошкент: Фан, 1977. –154 б.; Қодирова М. XIX аср ўзбек адабиётида инсон ва халқ тақдири (Ўзбек шоирлари мисолида). Филол.фан. д-ри...дисс. –Тошкент, 1975. –307 б.; Мадаминов А. Узлат ва унинг лирик мероси. Филол.фан. номз...дисс. –Тошкент, 1971. –163 б.; Тожибоев Р. Маърифатга бахшида умр. // Қўқон садоси. 2006. №8. –Б.2.; Turdialiyev A. Yanglish tasavvur (Muhiy taxallusining yozilishi haqida). // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. –Toshkent, 2013. №46. –B.26-32.; Иброҳимова Э. Увайсий ҳаёти ва ижоди: Филол.фан. номз... дисс. –Тошкент, 1966. –123 б.; Сирожиддинов Ш. Хилватий меросига этиқод самараси. // Имом ал-Бухорий сабоқлари. –Тошкент, 2002. №2. –Б.142-144.; Shu muallif. O'zbek matnshunosligi shakllanishining tarixiy ildizlari // Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning dolzarb muammolari. –Toshkent: TUBO NASHR, 2022. –B.4-9.; Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филол.фан. д-ри...дисс. –Тошкент, 2004. –280 б.; Зоҳидов Р. “Сабот ул-оҷизин” асарининг манбалари, шарҳлари ва илмий-танқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари. Филол.фан.д-ри ...дисс. автореф. –Тошкент, 2018. –75 б.; Shu muallif. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik asoslari. –Toshkent: Yashil yarg'oq nashr-matbaa uyi, 2023. –224 б.; Жўрабоев О. Ҳазиний Хўқандий ҳаёти ва ижодий мероси. Филол. фан. номз...дисс. –Тошкент, 2003. –156 б.; Qobilova Z. Badiiy ijodda ta'sir va izdoshlik masalalari (Amiriy she'riyat misolida). Filol.fan. d-ri...diss. –Farg'ona, 2020. –260 б.; Erkinov A. “Majmu'ayi shoiron” tazkiram yoki bayoz? // Adabiy meros. 2022. №1. –B.50-65.; Рафиддинов С. Азимхожа эшон. –Тошкент: Ўзбекистон, 1993. –88 б.; Hasanov N. Çağatay şairi Azim hacc ve hikmetleri. // Türk dünyası araştırmaları. 2011. –S.137-143.; Шу муаллиф. Яссавийликка доир манбалар ва “Девони Ҳикмат”. –Тошкент: Akademnashr, 2012. –304 б.; Shu muallif. Ferganali mutasavvif şair Ziyaüddin Hazini Töre Hokandi hakkında. // Buhara'dan Konya'ya irfan mirasi ve XIII. Yü. medeniyet merkezi Konya. –Konya: Aralik, 2018. –S.213-223.; Shu muallif. Qo'qonda saqlanayotgan “Devoni hikmat”ning ayrim nusxalari haqida. // Qo'qon adabiy muhiti va Uchinchi Renessans. –Qo'qon: Farg'ona, 2022. –B.453-459. Пардаев Қ. Муқимий шеърятининг матн тарихи, таҳрири ва талқини. Филол.фан. д-ри...дисс. –Тошкент, 2020. –310 б.; Абдуллаева Д. Усмонхўжа Зорий ҳаёти ва ижоди. Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. –Тошкент, 2003. –24 б.; Деҳқонов А. Муҳаййирнинг ҳаёти ва ижоди. Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. –Тошкент, 2007. –25 б.; Зоҳидова Д. Ғарбий ва унинг девони. Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. –Тошкент, 2006. –23 б.; Муҳиддинова Н. Мирҳасан Садоийнинг адабий мероси. –Тошкент: Mumtoz so'z, 2015. –143 б.

We can find views on the topic in textbooks, scientific monographs and pamphlets compiled by scientists such as T.Jalolov, V.Zokhidov, B.Valikhodjayev, E.Shodiyev, A.Khalilbekov, M.Khamidova, Kh.Ipekten³³.

The reviews and anthologies related to the literary environment of Kokand are described scientifically and theoretically in the articles of O.Juraboyev³⁴. Scientific research works carried out by scientists such as S.Samandarova, M.Kadirova, M.Shoniyozov, T.Tashboltayeva³⁵ are valuable literary sources for the reflection of this environment and its manuscripts. The first publication of Said Mukhammad Alikhan's book by O.Juraboyev was the latest practical work in the field³⁶.

Similar to the above, there are many things that need to be done and are waiting for their own research. It is good to start solving the problems of literary studies, in particular, classic literature, first of all, from the textual study of the work. For this reason, among many periods and topics of the history of literature, researches related to this environment continue even today. In order to start the research of "Devon" and poetry collections organized by Kokand artists in various genres with fine taste and artistic skills, first of all, critical study of their autographs and copies copied by scribes, compilation of a collective volume, there are necessary tasks such as conversion, implementation of academic publication.

The connection of the research with the scientific research plans of the scientific research institution where the dissertation was completed. The dissertation research was carried out in accordance with the new exposition of the State literature museum named after Alisher Navoi, in particular, "Uzbek literature of the 16th-19th centuries" and "Uzbek literature of the 20th century" exposition-thematic plan.

The purpose of the study. It consists in carrying out the source studies of the "Tazkirai Kayyumi" manuscript, studying the manuscript and the current version in a textual-comparative aspect, restoring the biography and works of the scientist based on primary sources, and revealing the scientist's scientific and aesthetic thinking.

Tasks of the research:

³³ Жалолов Т. Ўзбек шоирлари. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1959. –168 б.; Зоҳидов В. Ўзбек адабиёти тарихидан. –Тошкент: Ўзадабийнашр, 1961. –266 б.; Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. –Тошкент, Фан, 1974. –159 б.; Шодиев Э. Фазлий Намангоний ва Хўжанд шоирлари. –Хўжанд: Хўжанд давлат университети, 1993. –72 б.; Халилбеков А. Наманган адабий гулшани. –Наманган: Наманган, 2007. –467 б.; Ipekten H. Şair tezkireleri. –Ankara: Araştırma ve İncelme Dizisi, 2002. –372 s.

³⁴ Жўрабоев О. Қўкон адабий муҳитида девончилик анъанаси ва девонлар таснифи. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008. №4. –Б.8-17; Шу муаллиф. Мирзо Сиддиқ Фано ва унинг адабий мероси. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2011. №2. –Б.117-125; Шу муаллиф. Навоий даври девончилиги ва Қўкон адабий муҳити. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2015. №1. –Б.27-32; Шу муаллиф. Амир Умархон ва Қўкон адабий муҳити. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2019. №6. –Б.45-46.

³⁵ Самандарова С. XX аср ўзбек тазкиралари. Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. –Тошкент, 1996. –26 б.; Қодирова М. Иброҳим Даврон. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. –87 б.; Шониёзов М. Мажмуаи шоироннинг матний хусусиятлари: Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. –Тошкент, 2009. –23 б.; Тошболтаева Т. Фазлий Намангоний: "Мажмуаи шоирон"да анъанавийлик ва ўзига хослик: Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. –Фарғона, 2020. –24 б.

³⁶ Саид Муҳаммад Алихон. Девон (нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи: Жўрабоев О.). –Тошкент: Tamaddun, 2024. –244 б.

